

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KARIMOV ISLOM RUSTAMALIYEVICH

**KAVAR (CAPPARIS SPINOSA L.) MEVASIDAN ORGANIK KUKUN
TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA UNI OZIQ-
OVQAT SANOATIGA TADBIQ ETISH**

06.01.11 –Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Наманган - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Karimov Islom Rustamaliyevich

Kavar (Capparis spinosa L.) mevasidan organik kukun tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va uni oziq ovqat sanoatiga tadbiiq etish..... 3

Karimov Islom Rustamaliyevich

Разработка технологии приготовления органического порошка из плодов каперса (Capparis spinosa L.) и применение его в пищевой промышленности..... 21

Karimov Islom Rustamaliyevich

Development of organic powder preparation technology from Capparis spinosa L. fruit and its application to the food industry..... 41

Elon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
 List of published works..... 44

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILM
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KARIMOV ISLOM RUSTAMALIYEVICH

**KAVAR (CAPPARIS SPINOSA L.) MEVASIDAN ORGANIK KUKUN
TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA UNI OZIQ-
OVQAT SANOATIGA TADBIQ ETISH**

06.01.11 –Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Наманган - 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5182 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universiteti hamda Toshkent davlat agrar universitetlarida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Merganov Avazxon Turgunovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azizov Aktam Sharipovich
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Ravshanov Suvonqul Safarovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalari instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "6" dekabr soat 10⁰⁰ da o'tadigan majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85, faks: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 6- bino, 1-qavat, 303- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (90-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "22" noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 22-noyabrdagi № 32-raqamli reestr bayonnomasi)

O.K.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, k.f.f.d., professor

O.T.Mallabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., (PhD) dotsent

A.M. Xamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy seminar raisi, t.f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq ho'jaligida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, qayta ishlash va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ko'paytirish, tarkibida yod saqlagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyolarni yetishtirish kabi bir qator masalalarni yechish dolzarb hisoblanadi. Aholini sog'lom turmush tarzi va iste'mol madaniyatining ortishi, meva-sabzavotlardan organik kukun ishlab chiqarish hamda ular asosida turli hildagi oziq-ovqat mahsulotlari turi va hajmini oshirishga qaratilgan mavjud muammolar yechimlarini topish alohida ahamiyatga ega.

Jahonda oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini kengaytirish, ozuqaviyligi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, tarkibida yod saqlagan ko'plab o'simliklar yetishtirish va bu orqali insonlardagi yod tanqisligini bartaraf etish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada kavar mevasini yovvoyi navlarini seleksiya qilish orqali madaniylashtirish, ularning xosildorligini oshirish, yetishtirish va uni chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoatida keng qo'llalanib mahsulotlar ishlab chiqarish, kavar mevasidan turli hil oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga ingridiyent sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan funksional va yuqori qiymatga ega bo'lgan moddalarning olinishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida yovvoyi tarzda o'suvchi kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligini seleksiya qilish orqali madaniylashtirish, g'unchalari va texnik yetilgan mevalaridan yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash, xom ashyoni kompleks qayta ishlash texnologiyalarini yaratish, energiya va resurstejamkor tizimlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan uchinchi yo'nalishida "... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish..."¹ kabi ushbu sohadagi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada kavar o'simligini madaniy holda ekinzorlarini tashkil etish va texnik yetilgan mevalarni quritish va organik kukun tayyorlash texnologiyasi ilmiy asoslarini ishlab chiqish, mahalliy xom ashyolardan foydalanib, eksportbob va import o'rnini bosa oladigan keng assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari va xom ashyoni yetishtirish orasidagi bog'liqlikni aniqlash bo'yicha izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli Farmoni, 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yildagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"

ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustivor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, (*Capparis spinosa L.*) o'simligini agrobiologik xususiyatlarini o'rganish va urug'larni tinim davrini qisqartirish va madaniy holda yetishtirish va foydalanish borasida chet el olimlaridan Rhizopoulou S., Psaras G.K., Sozzi O.G., Lu Gan., Rafella D., Nidal El amri, Stephanie Ch., Abdelatif B., Ziwei Lin, Faroq Anvar, Sher H., Nabavi S.F., Macchia M., Bobrow E.G., Sankara Rao K., Khatib M., Fu X.P., Colis I. va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan kavar o'simligini yetishtirish, madaniylashtirish, qayta ishlash usullaridan individual yondashuvlarni to'g'risida xulosalar qilishgan.

O'zbekistonda bu borada Respublikamiz turli iqlim sharoitlarida o'suvchi kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligini biologik xususiyatlari, madaniy holda yetishtirish va mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha Zokirov Q. Z., Sahobiddinov S. S., Merganov A. T., Tursunxojaev F. M., Eshonqulova N. T., Abdullaev Z.I., Holiqova N.B., Bo'stonov Z.T., Mukhammedova K.S. va boshqalarning olib borgan tadqiqotlari kavar o'simligini seleksiya yutuqlari asosida tanlash, yetishtirishda agrobiologik xususiyatlarini o'rganish, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tadqiq qilish masalalariga bag'ishlangan.

Bugungi kunga kelib, tarkibida yod saqlagan qishloq xo'jalik xom ashyosi kukunlarini olishda, individual yondashish, xususan (*Capparis spinosa L.*) o'simligini texnik yetilgan mevalarini quritishda o'ziga xos yondashish, quritilgan mahsulotdan oziq-ovqat, non va non mahsulotlari, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan organik kukunlar, g'unchalaridan marinadlangan konservalar ishlab chiqarish borasida izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi yovvoyi tarzda o'suvchi (*Capparis spinosa L.*) o'simligidan seleksiya yutuqlari asosida tanlab olingan navini xosildorligini oshirish maqsadida, innovatsion yechimlarni taklif qilish, texnik yetilgan mevalarini quritib, organik kukun olish va g'unchalaridan marinadlar tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq BV-A.Q.X.2018-423 raqamli "Kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligini madaniy holda dasht yerlarda o'stirish va mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasini tijoratlashtirishga tayyorlash" va T-2021-168 "Kavar o'simligini madaniy holda dasht yerlarda o'stirish va mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" mavzusidagi loyixa doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Kavar (*Capparis spinosa L.*) mevasini yetishtirishda innovatsion yechilarni taklif qilish, texnik yetilgan mevasidan organik kukun va g'unchalaridan marinadlar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligini yetishtirishda mevasini yetilish bosqichlarini ta'dqiq qilish, texnik yetilish muddat davomiyligini aniqlash;

kavar mevasini tovarboplik darajasini va xosildorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish;

kavar o'simlik texnik yetilgan mevalarni nativligini saqlab qolishda qurutish usullarini kvalifikatsiyalash qurutishning eng maqbul texnologiyasini tanlash;

quritilgan kavar mevasidan organik kukun olish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish va texnologiyasini ishlab chiqish;

kavar mevasidan tayyorlangan konserva va organik kukunni fizik-kimyoviy, toksikologik xususiyatlarini o'rganish, undan rotsional foydalanish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

kavar o'simligi mevasini innovatsion usulda yetishtirish, mevasidan konserva mahsulotlari tayyorlash, organik kukun olish texnologiyalari va funksional mahsulotlar ishlab chiqarishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida kavar o'simligini mahalliyashtirilgan navi va yovvoyi navlari hamda texnik yetilgan kavar mevasi, g'unchasi, maxsus xalqali tirkovuchlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kavar o'simligini agrobiologik xususiyatlari, texnik yetilgan kavar mevasini tovarboplik darajalari, qurutish usullari hamda, qurutilgan mevasidan organik kukun tayyorlash texnologiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning uslublari. Dala, laboratoriya va sanoat tajribalari, kavar o'simligini agrobiologik xususiyatlari va yetishtirish agrotexnikasini o'rganish uchun fenologik kuzatuv, xom ashyo va tayyor mahsulotlarning organoleptik baholashda sub'ektiv usuldan, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari va kimyoviy tarkibini tahlil qilishda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya YUSSX / HPLC, spektrofotometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy va madaniy holda yetishtirilgan kavar mevalarining yetilish bosqichlari va texnik yetilish muddat davomiyligi aniqlangan.

kavar mevasini madaniy holda yetishtirishda mahsus xalqali tirgovuchlardan foydalanish, mevalarning tovarboplik va xosildorlik darajasini 20-30 % oshirilishi isbotlangan.

kavar mevalarini nativligini saqlab qolishda sublimatsiya quritish usulidan foydalanish, tabiiy va konvektiv usullarga nisbatan quritish vaqtini 2-3 marotaba qisqartirish imkoniyatini berishi aniqlangan.

kavar mevasini sublimatsion quritish usulda qayta ishlab organik kukun olishda kesish qalinligini 8 mm, vaqt davomiyligi 52 soat bo'lganda organik kukun chiqishi 98,13 % bo'lishi isbotlangan.

ilk marotaba kavar mevasidan ratsional foydalanish maqsadida marinadlangan konserva mahsulotlari va organik kukun tayyorish usuli ishlab chiqilgan, texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan

quritilgan kavar mevasidan tarkibida yod saqlagan organik kukun olish texnologiyasi va oziq-ovqat sanoatida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan, hamda ishlab chiqarish rentabelligini 26,2 % oshirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

kavar o'simligini madaniy holda yetishtirish va parvarishlashda mevalarning yetilish bosqichlari (fazalari) o'rganilib, maxsus xalqali tirkovuchlardan foydalanish, mevalarning tovarbopligini 25-30% ga oshirishi isbotlangan;

texnik yetilgan mevalarni sublimatsion usulda quritish texnologiyasi va optimal rejim ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

qurutilgan kavar mevasidan tarkibida yod saqlagan, tabiiy yodga boy organik kukun tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

texnik yetilgan kavar mevalaridan marinad tayyorlashning miqdoriy ko'rsatkichlari va texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kavar o'simligini yetishtirishda maxsus xalqali tirgovuchlardan foydalanish, mevalarning tovarboplik, mahsulotlarning ko'rsatkichlari va kimyoviy tarkibini tahlil qilishda yuqori samarali suyuqlik xromotografiya YUSSX/HPLC, spektrofotometriya kabi zamonaviy qurilmalarda tadqiq qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan № FAP 01950 Kavar (Capparis spinosa L.) g'unchasidan marinadlangan konserva mahsuloti tayyorlash usuli bo'yicha foydali model olinganligi, amaliy loyixa doirasida bajarilganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, seleksiya yutuqlari asosida madaniylashtirilgan kavar navini xosildorligini oshirishda maxsus xalqali tirgovuchlardan, mahsulotlarning ko'rsatkichlari va kimyoviy tarkibini tahlil qilishda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil qilish usullaridan foydalanilganligi, qayta ishlash texnologiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganilganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahsulotni tovarboplik darajasini oshirishda maxsus xalqali tirgovuchlar qurilmasi, undan foydalanish uslubini yaratilganligi va mahsulotni tovarboplik darajasi tabiiy holda o'stirilgandagiga nisbatan 25-30% ga oshirishga erishilganligi, mevani quritish usul va rejimlari o'rganilganligi, quritilgan kavar mevasidan yodga boy organik kukun tayyorlash va marinad tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqilganligi hamda rejimlarni tanlanganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Kavar (Capparis spinosa L.) mevasidan organik kukun tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va uni oziq-ovqat sanoatiga tadbiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kavar (Capparis spinosa L.) o'simligini madaniy xolda yetishtirish va uni kompleks qayta ishlash texnologiyasi "Iron Lit" va "Ikromjon nonlari" MCHJ korxonalarining "2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024 yil 8 iyundagi №08-

56/06-24 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kavar o'simligining vegetatsion davriyligi 15-20 kunga uzayishiga, texnik yetilgan kavar mevasining xosildorligi 5-10% ga, mevalarning tovarboplik ko'rsatkichi 25-30% ga oshirish imkonini beradi;

kavar mevalarini sublimatsiya usulida quritish, organik kukun olish, marinadlangan konserva mahsuloti tayyorlash texnologiyasi "Iron Lit" va "Ikromjon nonlari" MCHJ korxonalarining "2024-2025 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024 yil 8 iyundagi №08-56/06-24 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibida yod saqlagan, biologik qiymati yuqori, tabiiy faol qo'shimchalar bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari Toshkent davlat agrar universiteti va Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etilgan aprobatsiya komissiyalari, hamda innovatsion ko'rgazmalarda muhokama etilgan. Olingan natijalarga asosan 8 ta ilmiy amaliy konferensiya, shu jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha OAK tasarrufidagi, xorijiy va boshqa jurnallarda 14 ta ilmiy maqolalar, 2 ta monografiya, 1 ta tavsiyanoma chop ettirilgan, shuningdek intellektual mulk agentligi tomonidan 2022 yilda kavar meva mahsulotlarini qayta ishlash usuli uchun № FAP 01950 raqamli patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 142 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzu va olib borilgan tadqiqotning ahamiyati, dolzarbligi hamda muhimligi ilmiy asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ifodalangan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzulishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligi mevasini biologik tavsifi, kimyoviy tarkibi, qayta ishlash va undan foydalanish istiqbollari ga oid adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida kavar o'simligi turlari va madaniy navlari tavsifi, kavar o'simligi mevasini kimyoviy tarkibi va qayta ishlash aspektlari, kavar o'simligi mevasidan foydalanishdagi innovatsion yechimlar to'g'risida xorijiy va mahalliy adabiyotlar ma'lumotlari tahlil qilingan. Adabiyot manbai ma'lumotlari kavarni yetishtirish, g'uncha va mevalarining qayta ishlash texnologiyalari yuzasidan adabiyotlar ma'lumotlari keltirilgan. Bu o'rganishlar orqali, ushbu tadqiqot ishida maqsad va vazifalarni shakllantirish imkoni yaratildi.


Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkaziladigan joyning muhit sharoitlari, tadqiqot xomashyolari va tayyor mahsulot sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan joyning tuproq iqlim sharoitlari,

tavsiflari, tadqiqot ob'ekti va uslublari, xom ashyo va tayyor mahsulotning organoleptik, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishning zamonaviy usullari, laboratoriya qurilmalarining tavsiflari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Kavar mevasini yetilish, qayta ishlash texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov natijalari muxokamasi**" deb nomlangan uchinchi bobida kavar o'simlik tur va navlarini biologik xususiyatlari, o'sish va rivojlanish fazalari, quritish va organik kukunning sifat ko'rsatkichlari hamda oziq-ovqat sanoatida foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari muxokamasi bayon qilingan.

O'zbekiston hududida o'sadigan kavar o'simliklarining fenafazalarining boshlanishiga davomiyligi barcha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot davimimida uchta navning yillar davomida vegetatsion davriyligi o'rganildi. Tadqiqot navlari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmdan ko'rib turibdiki, yovvoyi tarzda o'suvchi kavar navlari va madaniylashtirilgan O'zbekiston-20 navlarining vegetatsion davriyligi 15-20 kunga farq qilishi kuzatildi. Yillar kesimida vegetatsion davriyligining eng maqbul davri 2023-yil xossasiga to'g'ri keldi. O'simliklarni vegetatsiya davrining rivojlantirish fazalari taxill qilindi. O'zbekistonlik olimlar A.T. Merganov va S.A. Salixovlar tomonidan Capparis spinosa L. turidan madaniy O'zbekiston-20 navi seleksiya yutuqlari asosida tanlab olingan. Kavar o'simligining navlari bo'yicha rivojlanish fazalari barcha ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Kavar o'simligining tur va navlar bo'yicha vegetatsiya davrining davomiyligi dinamikasi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar madaniy holda o'suvchi o'simliklar madaniy holda o'suvchiga nisbatan fiziologik davrni biroz ertaroq boshlanishi kuzatildi. Madaniy holda yetishtirilgan o'simlikni feno-fazalari yovvoyiga nisbattan kechroq amalga kirishi aniqlandi. Lekin, kuzatuv davomiyligiga ko'ra biologik

faollik muddati yovvoyiga nisbatan madaniyda uzoqroq davom etishi kuzatildi. Capparis spinosada fazaning boshlanishi 20 martda boshlanib, biologik yetilishning tugashi, ya'ni o'simlikning o'sish va rivojlanishdan toxtash vaqti 15-18 avgustlarni tashkil qildi.

1-jadval

Kavar o'simligini tur va navlar bo'yicha o'sish-rivojlanish fazalari.(oy,kun)

№	O'sish va rivojlanish fazalasi	Capparis spinosa		Capparis rosanova		O'zbekiston-20	
		Fenafazalar boshlanishi	Fenafazalar davomiyligi	Fenafazalar boshlanishi	Fenafazalar davomiyligi	Fenafazalar boshlanishi	Fenafazalar davomiyligi
1	Shonalash	20.03±4	20.06±2	20.03±4	15.06±2	25.03±4	02.07±2
2	Gullash	27.03±2	30.06±2	27.03±2	30.06±2	02.04±2	12.07±2
3	Tuguncha hosil bo'lishi	05.04±2	08.07±2	07.04±2	08.07±2	15.04±2	20.07±2
4	Mevani shakillanishi	15.04±2	24.07±2	15.04±2	22.07±2	25.04±2	01.08±2
5	Mevani texnik yetilishi davri	23.04±5	30.07±5	23.04±5	30.07±5	04.05±5	10.08±5
6	Texnik-biologik yetilish davri	03.05±6	10.08±6	03.05±6	03.08±6	12.05±6	22.08±6
7	Biologik yetilish davri	15.05±3	16.08±3	15.05±3	14.08±3	25.05±3	25.08±3

Kavar o'simlikning navlari o'sish rivojlanish fazalarining vegetatsiya davriyligini inobatga olib texnologik jixatdan, sanoatda foydalanish uchun eng maqbul nav sifatida O'zbekiston-20 navi tanlab olindi. Kuzatuvlar mobaynida o'simlikning o'suv davomiyligi 155-160 kunnini tashkil qilgan bo'lsa, shundan shonalash davri 95-97 kunini, gullash davri 100-105 kunni, gullagan mevada tuguncha xosil bo'lib meva shakillanishi va texnik yetilish bosqichlari 95-100 kunni tashkil etdi. Keyingi jarayonda esa texnik biologik va biologik yetilish bosqichlari tadqiq qilindi.

Madaniylashtirilgan O'zbekiston-20 navida mevalarning texnik yetiganlik va biologik yetilganlik davrlari orasidagi vaqt juda qisqa bo'lib, 15-17 kunni tashkil qilgan bo'lsa, ekstrimal sharoitdagi bu farq 10-12 kunni tashkil qildi. Shuningdek avgust oyining uchinchi dekadasi yovvoyi tarzda o'suvchi Capparis spinosa L. navining Capparis rosinova L. navlari rivojlanish fazalaridan butkul to'xtagani kuzatildi. Ko'chatlar soni madaniylashtirilgan O'zbekiston -20 navida yuqoridagi ikki navga nisbatan salkam 1,5 - 1,9 marta ko'p bo'ldi bunday ko'chatlar sonining ko'pligi, rivojlanish fenafazalarining, ya'ni mevalarning texnik va biologik yetilganlik fazalari orasidagi vaqtning qisqaligi hosildorligini xam ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Maxsus xalqali tirgovuchlarni kavar o'simligini yetilishi rivojlanish fazalarida yerdan ma'lum balandlikda hamda aynan qaysi faza davomiyligida qo'yish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Maxsus xalqali tirgovuchlarni tutub turuvchi uch dona tutqich o'rnatildi. Tadqiqotimiz davomida Capparis spinosa L. va Capparis rosinova L. larga nisbatan vegetatsion davriyligi uzoq bo'lgan, hosildorligi yuqori bo'lgan O'zbekiston-20

navi yillar davomida maxsus xalqali tirgovuchlarni turli balandliklarda o‘rnatish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Maxsus xalqali tirgovuchlarni o‘rnatish balandligi bo‘yicha tadqiqot natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublikamiz xududida o‘sadigan Capparis spinosa L., Capparis rosinova L. yovvoyi kavar navlariga nisbattan O‘zbekiston-20 navi ishlab chiqarish sanoat tarmog‘i uchun eng maqbul nav ekan. Shuningdek O‘zbekiston-20 navini yetishtirishda xosildorlikni oshirish, xosil tovarboplik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, yerbag‘irlab o‘sganligiga nisbattan xosildorlik 4,3 tonna (30 %) ga oshirish maqsadida, diametrii 50-60 sm bo‘lgan uchta tirgovuchga maxkmlangan doira shaklidagi MXT lardan yerdan 60-70 sm balandlikda foydalanish eng maqbul innovatsion yechim ekanligi aniqlandi.

2-jadval

O‘zbekiston-20 navini MXT yordamida yetishtirish natijalari tahlili

№	Maxsus xalqali tirgovuchlar balandligi, sm	Vegetatsiya davriyligi, kun	Bir tup o‘simlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar			
			ko‘sak mevalar soni, dona	1 dona mevaning og‘irligi, gr	Jami xosildorlik, kg	1m ² yuzadagi ko‘chatlar soni, tup
2021-yil davomida						
1	30-50	160	43	13,2	502	3,1
2	60-70	160	49	15,3	725	3,1
3	80-100	160	46	14,2	680	3,1
2022-yil davomida						
1	30-50	165	42	13,7	510	3,1
2	60-70	165	48	15,3	725	3,1
3	80-100	165	46	14,5	678	3,1
2023-yil davomida						
1	30-50	165	42	13,9	508	3,1
2	60-70	165	49	15,4	750	3,1
3	80-100	165	45	14,8	681	3,1

Biz tamonimizdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida madaniylashtirilgan O‘zbekiston-20 kavar navini yer bag‘irlab va mahsus xalqali tirgovuchlar yordamida yetishtirishning ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Xom-ashyodan sanoatda foydalanish vaqtida, dastlab sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Yetishtirish usuliga bog‘liq ravishda kavar mevasi xom-ashyoning tovarboplik darajasi 3-jadvalga muvofiq o‘rganilgan.

Mahsus halqali tirgovuchlar yordamida yetishtirilgan xosilning 2021-yildan 90% standart talablarga javob bergan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich yaxshilandi, nostandart mevalar ulushi 4% ni tashkil qildi. Yetishtirilgan xosilning eng yaxshi ko‘rsatkichi 2023-yilda yetishtirilgan xosil xissasiga to‘g‘ri kelib 93% standart va 2% nostandart mevalarni tashkil qildi. Shu bilan birga MXT lardan foydalanish natijasida mineral va organik iflosliklar yer bag‘irlab yetishtirishga nisbatan, mineral iflosliklar ulush 5-6 % ga qadar kamaytirishga erishilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kavar mevasining tovarboplik ko'rsatkichlari


№	Yetishtirish usuli	Umumiy xosil miqdori T, (%)	Tovarboplik ko'rsatkichlari			
			Standart mevalar, %	Nostandart mevalar, %	Mineral aralashmalar, %	Organik aralashmalar, %
2021-yil davomida						
1	Yerbag'irlab o'sganda	11,6 (100%)	70	20	7	3
2	MXT (60-70 sm)	21,4 (100%)	90	5	2	3
2022-yil davomida						
1	Yerbag'irlab o'sganda	11,6 (100%)	72	18	8	2
2	MXT (60-70 sm)	20,7 (100%)	91	4	3	2
2023-yil davomida						
1	Yerbag'irlab o'sganda	13,9 (100%)	75	15	7	3
2	MXT (60-70 sm)	21,4 (100%)	93	2	2	3

Tadqiqot davomida mahsus halqali tirgovuchlar yordamida yetishtirilgan kavar mevalarining fizik- kimyoviy va orgoneptik ko'rsatkichlari ham tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari kavar mevasining orgoneptik ko'rsatkichlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

MXT yordamida yetishtirilgan kavar mevalarining orgoneptik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Yillar kesimida		
		2021	2022	2023
Yerbag'irlab yetishtirilganda				
1	Rangi	3	3	4
2	Xidi	4	3	4
3	Tami	4	4	3
4	Yoriqlar mavjudligi	3	4	3
MXT qo'llagan holda yetishtirilganda				
1	Rangi	4	5	5
2	Xidi	5	5	5
3	Tami	4	4	5
4	Yoriqlar mavjudligi	4	4	5

Tadqiqot davomida mahsus halqali tirgovuchlar yordamida yetishtirilgan texnik yetilgan fizik o'lchamlari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Turli kalibrdagi kavar meva namunalari

Tadqiqot davomida texnik yetilgan kavar mevalari turli qalinlikda kesilgan holda quritish usullarida quritildi. Bunda texnik yetilgan kavar mevalari 2;4;6;8 mm qalinlikda kesilib quritish uchun padnoslarga joylandi. Olingan tadqiqot natijalari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Texnik yetilgan kavar mevalarini kesish qalinligiga bog‘liq holda quritish usullarining meva kimyoviy tarkib o‘zgarishlar tahlili

№	Ko‘rsatgichlar nomi	Ananaviy usul		Ishlab chiqarish sanoati usuli	
		o‘ftobda	soyada	GP-80SPU	sublimatsiya
2 mm qalinlikda kesilgan mevalar					
1	Namlik, %	10,1	16,1	10,3	6,6
2	Vitamin C, mg/100gr	70,3	100,1	80,4	150,1
3	Yod (J ₂) mg/100 gr	70,2	80,6	70,3	130,3
4	Quruq modda miqdori, %	16,3	16,4	16,2	15,1
5	Mahsulot chiqishi, %	20,2	28,2	20,4	20,1
4 mm qalinlikda kesilgan mevalar					
1	Namlik, %	12,1	16,4	12,3	6,8
2	Vitamin C, mg/100gr	71,7	101,3	81,8	150,1
3	Yod (J ₂) mg/100 gr	70,2	80,8	70,3	130,3
4	Quruq modda miqdori, %	16,9	16,8	16,6	15,4
5	Mahsulot chiqishi, %	21,3	30,3	21,1	20,8
6 mm qalinlikda kesilgan mevalar					
1	Namlik, %	14,3	18,2	18,5	7,0
2	Vitamin C, mg/100gr	72,4	105,1	82,1	150,2
3	Yod (J ₂) mg/100 gr	72,7	83,2	74,8	130,2
4	Quruq modda miqdori, %	17,3	17,4	17,2	16,1
5	Mahsulot chiqishi, %	21,2	31,2	22,2	21,4
8 mm qalinlikda kesilgan mevalar					
1	Namlik, %	14,3	18,4	18,7	7,1
2	Vitamin C, mg/100gr	73,2	105,4	83,8	150,2
3	Yod (J ₂) mg/100 gr	73,4	85,8	76,2	130,1
4	Quruq modda miqdori, %	17,4	17,4	17,3	16,2
5	Mahsulot chiqishi, %	21,7	31,3	22,4	21,5

Jadval natijalariga asoslanib shuni ko‘rish mumkinki, texnik yetilgan kavar mevalarining qalinligi o‘zgarishi quritilgan mahsulot tarkibidagi C vitamini va asosiy

elementlardan biri bo'lgan yodning (J_2) parchalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu holat mahsulot chiqimi miqdoriga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Tadqiqot davomida quritish shkafida suvsizlantirilganda 100 gramm mahsulotda C vitamini miqdori 80,4 mg saqlanib qolgan bo'lsa, sublimatsiya (liofilizatsiya) usuli bilan quritilganda bu ko'rsatkich yuqoridagi usullarga nisbatan 1,5–2,14 baravar yuqori bo'lib, ya'ni 150,1 mg ni tashkil qildi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib aytish mumkinki, kavar mevasini quritishda ishlab chiqarish sanoatida optimal usul sublimatsiya (leofelizatsiya) bo'lib 6 mm qalinlikdagi namunalar eng maqbuli hisoblanadi, hamda mahsulot chiqimi va biologik faol moddalarning saqlanishi bo'yicha eng yaxshi natijani berdi.

Yuqorida keltirilgan quritish usullari orasida sublimatsiya jarayonining eng optimal holatini aniqlash bilan bir qatorda, ushbu usulda mahsulot uchun eng mos haroratni belgilash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar davom ettirilgan holda, sublimatsiya jarayonining optimal harorati aynan kavar mevasi uchun qanday diapazonlarda bo'lishi va bu borada bir qator amaliy va nazariy izlanishlar olib borildi.

Sublimatsiya jarayoni -55°C dan boshlanib, -10°C gacha bo'lgan harorat oralikida olib borilgan. Dastlabki bosqichda mahsulot tarkibidagi namlik muzlatiladi, so'ngra vakuum sharoitida bug' holatiga o'tib, chiqarib yuboriladi. Agar quritish harorati -25°C – 15°C gacha bo'lgan oralikda olib borilsa, jarayon 63 soat davom etgan. Biroq harorat -55 – 10°C oralikida bo'lgan diapazonda olib borilganda, quritish vaqti 4 soatga qisqargan. Shuningdek, -40 – 15°C oralikida esa quritish vaqti 11 soatga qisqarganligi qayd etilgan.

Quritilgan mahsulotda namlik miqdori harorat o'zgarishiga qarab ya'ni, -55 – 10°C bilan -40 – 15°C da deyarli o'zgarmagan. Biroq C vitamini va yod miqdorining o'zgarishi aniq sezilgan. Bu holat haroratning ortishi bilan vitaminlar parchalanishi va qurish vaqti qisqarishi, shuningdek, yod elementining tarkibida parchalanib, mazkur jarayonda mahsulotdagi vitaminlar va mikroelementlar ba'zi hollarda kompleks birikmalar shaklida saqlanishi aniqlandi.

Vakuum va past harorat sharoitida quritilgan kavar mevalarida flavonoidlar va glikozidlar deyarli o'zgarmasdan saqlanib qolgan. Sublimatsiya quritishning asosiy kamchiliklari sifatida vakuumni doimiy saqlash zarurati va past harorat sharoitida uskunalarning energiya talabchanligi, shuningdek, bunday mahsulotlarning narxining yuqoriligi hisoblanadi. Quritish natijasida mahsulot chiqimi haroratga qarab o'zgaradi: -25 – 10°C gacha bo'lgan diapazonda mahsulot chiqimi 30,4% ni, -40 – 15°C gacha bo'lgan haroratda esa shunga yaqin ko'rsatkichlar qayd etilgan. Biroq quritilgan mahsulotdagi yakuniy namlik 6.8 % ga farq qildi.

Agar harorat 25°C ga yetkazilsa, sublimatsiya jarayoni davomida suv molekulalarining qayta tiklanishi (regegeneratsiyasi) va mahsulotdagi osmotik bosimning oshishi tufayli murakkab reaksiyalar yuzaga kelgan. Namlikni chiqarish jarayonining yakuniy natijalariga ko'ra, mahsulot tarkibidagi suv miqdori -25 – 10°C diapazonida 82,1% bo'lgan bo'lsa, -55 – 10°C va -40 – 15°C oralikida bu ko'rsatkich mos ravishda 93,2% va 93,4% ni tashkil etdi.



A-

B

S

3-rasm. Kavar mevasini turli quritish usullarda qurutilgan namunalari

A-soyaki usulda qurutilgan; B-oftobi usulda qurutilgan; S-sublimatsiya usulda qurutilgan mevalarning ko‘rinishi.

Texnik yetilgan kavar mevalarini qayta ishlashda sublimatsiya usuli mahsulot chiqishi, fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari va sensorik baholash natijalari bo‘yicha eng maqbul usul sifatida qabul qilindi

Quritalayotgan mevalarning optimal qalinligi 4–6 mm bo‘lishi, foydali komponentlar va mevaning tabiiy xususiyatlarini maksimal darajada saqlashi va quritish uchun eng maqbul harorat esa $-40-15^{\circ}\text{C}$ gacha bo‘lgan diapazon ekani aniqlandi.

Texnik jihatdan yetilgan kavar mevalaridan marinad tayyorlash jarayonida tuzli eritmada ushlab turish bo‘yicha ham keng tadqiqot ishlari olib borildi. Olingan tadqiqot natijalari quyidagi 6-jadvalda bayon etilgan.

6-jadval

Kavar mevasini tuzli eritmada saqlash muddati (kunlar bo‘yicha, turli konsentratsiyada)

№	Tuzli eritma konsentratsiyasi (%)	Taxir tamni yo‘qolishi va ushlab turish vaqti, sutka				
		1 sutka	3 sutka	5 sutka	7 sutka	9 sutka
1	1%	+	+	+	+	-
2	3%	+	+	+	+-	-
3	5%	+	+-	+-	-	-
4	7%	+	-	-	-	-
5	9%	+	-	-	-	-

Izoh: “+” – taxir tam mavjud, “-” – taxir tam mavjud emas.

Jadvaldan ko‘rinib turibiki, kavar mevasidan marinad tayyorlashda tuzli eritmaning konsentratsiyasi 10–15% bo‘lib, ushlab turish muddati 5–6 sutkani tashkil qilgan bo‘lsa, texnik jihatdan yetilgan kavar mevasida bu muddat ikki marta qisqardi. Tuzli eritmaning konsentratsiyasi 1% bo‘lganida, 9 sutka davomida mahsulotda achchiq ta‘m (taxir-ta‘m) saqlanib qolgan. Biroq konsentratsiya 3% dan oshirilganida, 7-sutkaga kelib achchiq ta‘m sezilarli darajada kamaygan. 5% konsentratsiyali eritmada esa 3 va 5-sutkaga kelib achchiq ta‘m deyarli sezilmagan. 7% li konsentratsiyada esa 3-sutkaga kelib mahsulotda achchiqlik keskin kamaygan bo‘lsada, bu ta‘m 3-kundan keyin barqaror sezilmay qolgan. 9% konsentratsiyali tuzli eritmada esa 7% konsentratsiyadagiga o‘xshash holat kuzatilgan. Shu sababli, optimal marinad tayyorlash uchun tuzli eritmaning 5–7% konsentratsiyali eritmada 3 sutka saqlash eng maqbul deb topildi.

Kavar mevasidan ratsional foydalanish bo'yicha tadqiqotlar davom ettirgan holda, sublimatsiya usulida quritilgan texnik yetilgan kavar mevalaridan kukun tayyorlash bo'yicha izlanishlar olib borildi. Tadqiqot davomida quritilgan kavar mevalri ATR TOSH SG-200 markali quritilgan meva va sabzavotlardan kukun olish uchun mo'ljallangan laboratoriya tegirmonidan foydalanildi.

Tadqiqot natijasida olingan organik kukunning fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Kavar kukunining fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari

№	Ko'rsatgichlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori
1	Vitamin C miqdori	mg/gr	150
2	J ₂ miqdori	mg/100 gr	136
3	Vitamin P miqdori	mg/gr	130
4	Vitamin E miqdori	mg/gr	128
5	Namligi	%	6,25
6	Uglevod miqdori	%	8,12
7	Glikozid miqdori	mg/100 gr	1,1
8	Oqsil miqdori	%	24
9	Zichligi	kg/m ³	532
10	Kul miqdori	%	2,7

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, kavar mevasidan oqilona foydalanish yo'llaridan biri sifatida, ayniqsa kavar mevalaridan tayyorlanadigan marinadlarda o'ziga xos achchiq ta'mni kamaytirish maqsadida tuzli suvda ishlov berish tavsiya etiladi. Bunda tuzli suv konsentratsiyasi 2 marotabagacha kamaytiriladi, ishlov berish muddati esa 2–3 sutkagacha qisqartiriladi. Pasterilizatsiya jarayonida esa harorat 80–85 daraja atrofida ushlab turiladi va bu jarayon 20–25 daqiqa davom etadi. Bu sharoitlar marinad mahsulotlarining sifatini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Kavar o'simlini yetishtirish, texnik yetilgan kavar mevasidan organik kukun olish va ratsional foydalanish texnologiyasining dala va sanoat sinov natijalari muxokamasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida kavar o'simligini dala sharoitida maxsus xalqali tirgovuchlardan foydalanishning sinov natijalari, texnik yetilgan kavar mevasidan organik kukun olish, marinadlangan konserva mahsuloti tayyorlash texnologiyasining prinsipial sxemasi, bosqichlari va mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar va kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik to'g'risidagi tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, an'anaviy usulda kavar (*Capparis spinosa*) mevasini birinchi terimda to'liq yig'ib olishga erishilsa, biroq taklif qilingan usul yordamida hosil yetilishining davomiyligi 15–20 kun ortga surilishi evaziga, hosilni uchinchi terimgacha bosqichma-bosqich yig'ib olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa hosildorlikni to'liq ochib berish va mevalarning sifatini saqlab qolish imkonini berdi.

Dala sharoitlarida yetishtirilgan hosil kalibrovka mezonlariga ko'ra ajratilib, qayta ishlash va sanoatga yo'naltirildi. Ya'ni, mahsulotlarning bir qismi marinad yoki konserva tayyorlash uchun, qolgan qismi esa sublimatsiya usulida quritish texnologiyasiga tavsiya

etildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari esa quyidagi 8-jadval ko‘rinishida tizimlashtirildi.

8-jadval

Xosilning kalibrovkalanishi

№	Yetishtirish usuli	Jami xosil, t	Standart mevalar miqdori	Nostandart mevalar	Kalibrovkalanishi			
					3x5		2x3	
					t/ga	%	t/ga	%
1	Yerbag‘irlab yetishtirish (ananaviy usul)	19,6 (100%)	12,74 (65%)	6,86 (35%)	7,0	55	5,74	45
2	MXT yordamida yetishtirish (taklif qilingan usul)	21,4 (100%)	19,9 (93%)	1,49 (1,49)	12,6	65	7,0	35

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, taklif etilgan usulda yetishtirilgan mevalarning kalibrovkasi natijalari shuni ko‘rsatdiki, 3x5 sm o‘lchamdagi (yirik o‘lcham) mevalar ulushi an‘anaviy usulga nisbatan 10% ga yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, kichik o‘lchamli mevalarning ulushi an‘anaviy usulda ko‘proq ekanligi aniqlangan bo‘lib, bu holat vegetatsiya davridagi fotosintez, oziqlanish va agrotexnik tadbirlarning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar asosida, texnik yetilgan kavar mevasidan konserva mahsulotlarini tayyorlash va sublimatsiya usulida quritish texnologiyalari shartli ravishda 3 bosqichga ajratildi. Shu jumladan, birinchi bosqich quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oldi: kavar mevalarini yig‘ib olish va ularni qayta ishlash korxonasi yetkazib berish. Texnik yetiltirish jarayonida kavar mevalarini saralash (tazalash) va kalibrlash. Mevalarni yuvish.

Yer bag‘irlab va maxsus halqali tirgovuchlar yordamida o‘stirilgan kavar mevalarining tovaboplik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, aynan maxsus halqali tirgovuch yordamida yetishtirilgan namunalarda 90–95 % holatda standartga mos kelgani, hamda ularning tarkibidagi mineral va organik moddalarning saqlanishi yuqori darajada bo‘lgani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, an‘anaviy quritish usuli bilan sublimatsiya orqali quritilgan mevalardan olingan kukunlar taqqoslandi. Natijalarda sublimatsiya bilan quritilgan namunalarda kukun chiqishi ko‘proq bo‘lishi, hamda biologik faollik, rang, hidi va foydali moddalarning saqlanishi yuqori bo‘lishi aniqlandi.


Bu ma‘lumotlar asosida kukun chiqish, sifat ko‘rsatkichlari va texnologik samaradorlik jihatidan sublimatsiya usuli afzalligi isbotlandi. Ananaviy quritish usuli va sublimatsiya quritgichlardan kukun chiqishi va yo‘qotishlar bo‘yicha tadqiqot natijalari quyidagi 9- jadvalda keltirilgan.

Organik kukun chiqishi va yo‘qotishlar miqdorlari


№	Quritish usuli	Quritilgan mahsulot chiqimi kg/%	Organik kukun miqdori		Chiqindi miqdori		Qaytmas yo‘qotishlar	
			Kg	%	kg	%	kg	%
1	Ananaviy usul (soyada quritish)	31,2 (100%)	14,24	50,5	2,46	10,5	2,79	9,9
2	Ishlab chiqarish sanoat usuli (sublimatsiya)	21,4 (100%)	20,9	98,13	-	-	0,41	1,92

Tadqiqot natijasida, sublimatsiya quritish usulida olingan mahsulotdan organik kukun chiqishi 98,13% ga yetib, yo‘qotishlar deyarli minimal darajada bo‘ldi. Shu asosda, kavar mevasini qayta ishlashda sublimatsiya texnologiyasi yuqori sifat, xavfsizlik va biofaollikni saqlab qoluvchi eng samarali usul sifatida tavsiya etildi.

Ishlab chiqilgan prinsipial sxema va texnologik bosqichlar asosida kavar mevasidan ratsional foydalanishga oid to‘liq texnologik sxema shakllantirildi.



5-rasm. Kavar mevasidan marinad olish texnologik sxemasi



6-rasm. Texnik yetilgan kavar mevasidan organik kukun olishning prinsipial sxemasi

Tadqiqotimiz davomida olib borilgan izlanishlar va hisob-kitoblarga ko'ra, ya'ni yetishtirish, korxonani mavsumiy ishlash bo'yicha jami iqtisodiy samaradorlik

$\text{E iq. sam.} = 70\,192\,000 + 453\,900\,000 + 512\,820\,000 = 1\,036\,912\,000$
so'mni tashkil qilishi hisoblab topildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

2021-2024 yillar mobaynida kavar (*Capparis spinosa L.*) o'simligini yetishtirishda xosil sifati, salmog'ini oshirishda innovatsion usullarni qo'llash va texnik yetilgan mevasini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish va uni sanoatiga tadbiq etish bo'yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosalar qilindi.

1. Namangan viloyati tuproq iqlim sharoitlariga ko'ra kavar mevasini texnik yetilish bosqichlari, gullashi va mevasini shakillanish fazasiga ko'ra iyun oyining ikkinchi dekadasidan sentabr oyining boshlargacha davom etishi va undan 200-214 sentner/ga hosil yetishtirish mumkinligi aniqlandi;

2. Kavar o'simlik mevasini tovarboplik darajasini oshirishda (MXT) maxsus xalqali tirgovuchlardan foydalanishda mahsulot sifatini yerbag'irlab o'sgan o'simlikga nisbatan 28-30 % yuqori bo'lishi aniqlandi;

3. Texnik yetilgan kavar mevalari qayta ishlash usullariga ko'ra kalibrlarga jratildi. Konservlash uchun maqbul kattalik 2x3 sm, quritish uchun 3x5 sm kalibrdagi mevalardan foydalanish sanoat uchun maqbul ekanligi aniqladi. Kavar mevasini konservlashda 80-85 °C da pasterilizatsiya qilish maqbul xarorat ekanligi, saqlashda mikrobiologik jarayonlarni kechmsligi to'g'risida xulosalar qilindi.

4. Kavar mevasini qurutish texnologiyasiga ko'ra qurutishning oftobda, soyada, GP-80SPU qurutish shkafida, sublimatsiya jixozida quritildi. Bulardan sifat ko'rsatgichlari bir-biriga yaqin bo'lgan soyada quritish va sublimatsiya texnologiyasi asosida quritish tanlab olindi. Organoleptik va kimyoviy tahlillarga asoslanib organik kukun olish uchun maqbul texnologiya tanlab olindi. Sanoat uchun sublimtsiya usulida qurutilgan mevalar mosligi aniqlandi. Mevalarni qurutishda kesish qalinligi xam 6-8 mm qalinlikda kesilgami maqbul ekanligi o'rganildi;

4. Texnik yetilgan kavar mevasidan konserva tayyorlash, bundan tashqari sublimatsiya texnologiyasida suvsizlantirilib organik kukun olish uchun texnologik va prinsipial sxemalar ishlab chiqildi. Olingan organik kukun uchun oziq-ovqat sanoatida foydalanishda 2-nav ya'ni 180-250 mikron, yoki 60-80 meshli elaklardan foydalanish maqbul ekanligi aniqlandi;

5. Organik kukunning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilib, oziq-ovqat sanoatida foydalanishni tavsiya etamiz;

6. Texnik yetilgan kavar mevasidan konserva tayyorlash texnologiyasini joriy etish natijasida 19 % rentabellikga, sublimatsiya texnologiyasiga asoslangan holda suvsizlantirib organik kukun tayyorlashni amliyyotga joriy etish 26,2 % rentabellik bilan natijalar olish tadqiqot natijasiga ko'ra aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ
СОВЕТЕ DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАРИМОВ ИСЛАМ РУСТАМАЛИЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПРИГОТОВЛЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО
ПОРОШКА ИЗ ПЛОДОВ КАПЕРСА (CAPPARIS SPINOSA L.) И ЕГО
ПРИМЕНЕНИЕ В ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

06.01.11 - Хранение и переработка сельскохозяйственной продукции

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/T5182.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете и Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.namdtu.uz и информационно-просветительском портале «Ziynet» www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Мерганов Авазхон Тургунович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Азизов Актам Шарипович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Равшанов Сувонкул Сафарович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Андижанский институт агротехнологий
сельского хозяйства**

Защита диссертации состоится «6» декабрь 2025 г. в 10⁰⁰ в зале заседаний Научного совета DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 при Наманганском государственном техническом университете (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7. Тел.: (69) 234-14-85, факс: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Наманганский государственный технический университет, 6 здание, 2 этаж, 313 комната, зал заседаний Научного совета.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрировано под № 90). Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7. Тел.: 99869 234-14-85).

Автореферат диссертации разослан «22» ноябрь 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 32 от «22» ноябрь 2025 года)

О.К.Эргашев
Председатель разового научного совета
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

О.Т. Маллабаев
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD) по
химические науки, доцент

А.М. Хамдамов
Председатель разового научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в настоящее время актуальным является решение ряда задач по обеспечению продовольственной безопасности, увеличению объёмов производства продукции за счет использования современных технологий в сельском хозяйстве, переработке и расширению видов и ассортимента качественных пищевых продуктов, выращивание сырья для производства йодосодержащих продуктов питания. Особое значение имеет поиск решений существующих проблем по обеспечению здорового образа жизни и повышения культуры потребления населения, производство органического порошка из фруктов и овощей, а также расширение видов и повышение объёмов различных пищевых продуктов на их основе.

В мире проводятся широкомасштабные научные исследования по расширению ассортимента продуктов питания, производству высокопитательных продуктов, выращиванию многих йодсодержащих растений и, тем самым, устранению дефицита йода у людей. В связи с этим особое внимание уделяется окультуриванию диких сортов плодов каперсов путём селекции, повышению их урожайности, выращиванию и глубокой переработке для широкого применения в пищевой промышленности, а также получению из плодов каперсов функциональных и высокоценных продуктов, которые могут быть использованы в качестве ингредиентов в различных продуктах питания.

В нашей республике практически во всех регионах особое внимание уделяется окультуриванию дикорастущего растения каперса (*Capparis spinosa L.*) путём селекции, приготовлению полуфабрикатов из бутонов и технически зрелых плодов, разработке технологий комплексной переработки сырья, использованию энерго- и ресурсосберегающих систем, в области которой достигнуты определённые научные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» в третьем направлении под названием «Ускоренное развитие национальной экономики и обеспечение высоких темпов роста» обозначены важные задачи «продолжения реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и рост объёма производства промышленной продукции в 1,4 раза».

